

Nilufar BABANAZAROVA

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ISLOMIY MOLIVAVIY SAVODXONLIK INDEKSI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi va undagi o'zgarishlar, islomiy moliyaviy savodxonlikning o'ziga xos jihatlari, islomiy moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantiruvchi asosiy tushunchalar va ulardagi mavjud kamchiliklar, insonlar islomiy moliyaviy savodxonlik darajasi hamda umumiy moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlili va bu boradagi asosiy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Ushbu indeksni hisoblashdagi kamchiliklar o'rganilgan va uni mukammallashtirish uchun takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, islomiy moliyaviy savodxonlik, risk-tolerantlik, moliyaviy inklyuziya, moliyaviy xabardorlik, moliyaviy xulq, ob'ektiv va sub'ektiv moliyaviy ilm (xabardorlik, savod).

ANALYSIS OF THE ISLAMIC FINANCIAL LITERACY INDEX AND ITS MAIN DETERMINANTS

Abstract. This article presents the concept of financial literacy and the changes in it, the peculiarities of Islamic financial literacy, the basic concepts that form the Islamic Financial Literacy Index and the existing shortcomings in it, the analysis of the main factors affecting the level of human Islamic financial literacy as well as the general level of financial literacy, and central literature has been reviewed. The main problems in calculating this index have been studied, and suggestions have been made to improve it.

Keywords: financial literacy, Islamic financial literacy, risk-tolerance, financial inclusion, financial awareness, financial behavior, the objective and the subjective financial literacy.

Kirish

Moliya tizimida mablag'larning katta qismi aylanishi va daromadlar tengsizligi ortib borayotganligi insonlar, tashkilotlar va davlatlardan moliyaviy xabardorlik va xushyorlikni talab etmoqda. Moliyaviy texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi esa moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirmoqda va milliy chegaralarni olib tashlash bilan aholi uchun global risklar ehtimolini oshirmoqda. Innovasiyalarning

ko'payishi moliyaviy inklyuziyani ta'minlab berish bilan bir qatorda, aholining xabarsiz qatlamiga ta'minotsiz qarilik yoki qarz qopqoniga tushish kabi salbiy oqibatlar olib kelmoqda. Marketing hamda moliyaviy xulq-atvor o'rganilishi va avtomatlashuvi esa ishlab chiqaruvchilar va bizneslar uchun keng imkoniyatlar ochib berishi bilan birga insonlar mantiqiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Odamlar va ularning moliyaviy kelajagi bugun xatto o'zlarini ham kamdan-kam qiziqitmogda va qisqa muddatli qulaylik uchun uzoq muddatda majburiyatlarni paydo qilmoqda. Yangi avlodlar avvalgilariga nisbatan serharjroq va kelajakka (nafaqa, kreditlarning kelajagi va hokazo) nisbatan befarqroq harakatlarni amalga oshirishlari haqida bir qator izlanishlar mavjud (Lusardi, 2008). Bunaqa extremal sharoitda insonlar mantiqiy qarorlar qabul qilishlari uchun kerak bo'ladigan asosiy himoya omillaridan biri bu moliyaviy savodxonlikdir. Bugun davlatlar va mas'ul shaxslar oldida davlatning moliyaviy kelajagi qatorida, alohida shaxslar moliyaviy xulqini o'rganish va ehtimolli muammolarning oldini olish kabi muhim vazifalar turibdi. Insonlar moliyaviy savodxonligining ular qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarga sezilarli ta'siri mavjudligi va bu qarorlarga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, bugun butun dunyo izlanuvchilari e'tiborida turgan masalalardan biridir. Moliyaviy savodxonlik bir qator moliyaviy xulq-atvorlar o'zaro munosabatida kalit vositachi vazifasini bajarganligi sababli ham uning mavjudligi va mukammalligi muhimdir.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD, 2014) ta'biriga ko'ra, moliyaviy savodxonlik bu to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish va natijada individual moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan insonlardagi xabardorlik, bilim, ko'nikmalar, munosabat va xulq-atvorlar aralashmasidir (OECD INFE, 2011; Fraczek va Klimontowicz, 2015). Shuningdek, uni moliyaviy axborotni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati deb ham ta'riflash mumkin (Huston, 2010; Lusardi va Mitchell, 2014; Klapper va b., 2015).

Moliyaviy savodxonlikning o'sishi iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida tan olinganligi sababli, ko'pchilik davlatlar va (multinatsional) moliyaviy institutlar (masalan, Jahon banki) umumiy iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida jamiyatlar moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan loyihalarga investitsiyalarni kengaytirmoqdalar (Xu va Zia, 2012). Biroq, davlatlar va ularning o'ziga xos moliyaviy tizimlari, ulardagi insonlar va ularning xususiyatlari xilma-xilligi sababli, moliyaviy savodxonlik tushunchasi, unga ta'sir etuvchi omillar, hamda moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantirilishi turlicha bo'lishi mumkin. Kapitalistik yoki avtoritar davlat, an'anaviy yoki islomiy moliya faoliyatidan kelib

chiqib moliyaviy savodxonlik indeksi har xil shakllanishi mumkin. Bunda asosiy masala, mamlakat iqtisodi va aholisi uchun mos bo'lgan ko'rsatkichlar va omillarni inobatga olib tahlil qilishdir.

Islomiy moliyaviy savodxonlik – islomiy moliyaviy bilim va ko'nikmalar darajasini aks ettiradi. U islom moliyasi konsepsiyasi rivojlangach, oxirgi o'n yil ichida dolzarblashdi, biroq ushbu tushuncha falsafasi asosiy iqtisodiy o'lchov mezonlarida o'z aksini yetarli darajada topa olgani yo'q. Islom moliyasining musulmon va musulmon bo'lmagan mamlakatlar orasida rivojlanayotganligi esa, ushbu tushunchaning muhimligini ta'kidlaydi va islomiy moliyaviy savodxonlik indeksini o'rganishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy savodxonlik, insonlar moliyaviy xabardorligining ularning xulq-atvorlari hamda moliyaviy qarorlar qabul qilishiga ta'siri qadimdan olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Bu fenomenni o'rganish moliya bozorlari hamda marketing rivojlanishi bilan yanada dolzarblashdi. Shu sababli moliyaviy savodxonlikni o'rgangan dastlabki olimlarning nomini keltirish qiyin bo'lsada, iqtisodiy va moliyaviy mavzuda izlangan ko'pchilik klassik va zamonaviy olimlar bu mavzuni e'tirof etib o'tishgani tabiiydir.

Zamonaviy izlanuvchilardan Choi va boshqalar (2004) moliyaviy xulq-atvor va uning moliyaviy qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'liqligini, xususan taklif etilayotgan turli muqobillar va ular bilan bog'liq xulq-atvorning pensiya fondlari va investitsiyalarga ta'sirini o'rganganlar. Izlanishlar natijasi variantlarni taqdim etish jarayoni juda muhim ekanligini 401 (k) (alohida soliq imtiyozlariga ega bo'lgan) pensiya fondiga qo'yilmalar misolida tushuntirishga harakat qilganlar.

Lusardi (2009) moliyaviy savodxonlik bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan bo'lib, moliyaviy bilimning iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sirini atroflicha tahlil qilgan. U moliyaviy savodxonlikdagi tengsizlik boylik akumulatsiyasiga qanchalik ta'sir qilishini izohlashga harakat qilgan.

Mitchell (2015) moliyaviy savodxonlik va insonlarning nafaqa rejalari bog'liqligini o'rgangan. U asosan nafaqaga tayyorlik darajasi va iqtisodiy havfsizlik holatiga moliyaviy savodxonlikning ta'sirini kuzatgan.

Yoshino (2017) Yaponiya Banki tomonidan 18-79 yoshli 25000 nafar yaponiyalik respondentlar o'rtasida o'tkazgan so'rovnoma natijalari asosida moliyaviy savodxonlikning moliyaviy xulq-atvorga ta'sirini kuzatgan.

Dinc va boshqalar (2021), Khasanah va boshqalar (2022), Harun va boshqalar (2024) va yana bir qator olimlar islomiy moliyaviy savodxonlik determinantlari va

o'ziga xos jihatlarini Turkiya, Indoneziya va OIC a'zo mamlakatlari misolida o'rganishga harakat qilganlar.

Bu mavzudagi izlanishlar rivojlangan hamda rivojlanmagan davlatlarning ko'pchiligida ham olib borilmoqda. Qiziqarli tomoni, turli davlatlarda turlicha natijalarga erishilmoqda. Qaysidir davlatda moliyaviy savodxonlik yuqori bo'lib, boshqa bir ko'rsatkichga ijobiy ta'sir qilsa, yana bir davlatda xuddi shu savodxonlik darajasi bilan ko'rsatkich salbiy bog'liqlikka ega yoki umuman bog'liq bo'lmashligi ham mumkin. Sabab esa, mamlakatlar iqtisodiy va moliyaviy skeletining turlichaligi, insonlar xulq-atvotlariga ta'sir qiluvchi omillar xilma-xilligi, moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantiruvchi ko'rsatkichlar turli yerda turlicha ahamiyatga ega ekanligidadir. Islomiy moliyaviy savodxonlik tushunchasi esa, islomiy moliya mavjudligidan qat'iy nazar, bugun global moliya bozorini anglash va shu asosda qarorlar qabul qilish uchun insonlarda yetarli bilim va ko'nikmalar mavjudligini aks ettirgani sabab, o'rganish uchun ahamiyatli tushuncha bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Moliyaviy savodxonlik indeksi yuqori yoki pastligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bu insonlar yoshi, ta'lim darajasi, shuningdek, ota-onasining ilmiy statusi, yashayotgan hududi, ish joyi yoki faoliyat turi, daromadi, moliyaviy texnologiyalar yoki internet bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'lib, indeksning o'zi esa o'z nomidan kelib chiqib, respondentlarning moliyaviy tushuncha va jarayonlardan qanchalik xabardorligi va bunga o'zining munosabati haqidagi savollarga bergan to'g'ri javoblaridan shakllanadi.

So'rovnoma yoki intervyu o'tkazilib, javoblar tahlil qilingach, moliyaviy savodxonlik indeksini 2 xil: ball berish yoki ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullarida aniqlash mumkin. Moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantirishning eng sodda usuli bu HRS 2004 (AQShda 2004 yildagi sog'liq va nafaqa so'rovnomasi) ga asoslanib, inflyatsiya, foiz stavkasi va diversifikasiya tushunchalarining insonlar tomonidan anglanganligini baholash bo'lgan (Lusardi, 2008). Bunda 3 ta moliyaviy mavzudagi savolga berilgan javoblarga asoslanib, to'g'ri javoblarning jami savollardagi ulushi shaklida moliyaviy savodxonlik indeksi shakllantirilgan. Boshqa izlanishlar esa bu savollar ko'lamini 39-40 tagacha (Moore, 2003; OECD, 2013) kengaytirishgan. Bu usulning kamchiligi shundaki, unda har bir savol savodxonlikni belgilashda bir xil ulushga ega bo'lishi va bu barcha tadqiqotlar va tanlamalar uchun mos kelmasligidadir. Bunda adabiyotlardagi moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlarini taqqoslash qiyin bo'ladi. Bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida, ba'zi tadqiqotchilar

barcha tanlamalar uchun kamroq, biroq bir xil savollarni berib ko'rishgan: Huston (2010) 3-5 ta savoldan iborat indeksni, Lusardi va boshqalar (2017) 3-4 ta savoldan iborat indeksni shakllantirganlar.

Muqobil usul sifatida esa berilgan to'g'ri javoblarning tortilgan bahosi orqali savodxonlikni aniqlashni keltirish mumkin (OECD, 2013). Faqat ozchilik tadqiqotlarda javoblarning omilli tahlili amalga oshirilgan va ularda tadqiqotchilar moliyaviy savodxonlik komponentlarini asosiy va mukammallashgan ko'rsatkichlarga bo'lib aniqlashga harakat qilishgan (Jonsson va b., 2017; Yoong, 2011; Grohmann va b., 2015; Shen va b., 2016). Masalan, van Rooij va boshqalar (2011) respondentlarning moliyaviy savodxonlik bo'yicha berilgan 16 ta savolga javoblarining omilli tahlilini amalga oshirgan, u jami savollarni asosiy va mukammalashgan turlarga bo'lib, ikkala turdagi javoblarning ulushlarini belgilash uchun omilli tahlilni amalga oshirganlar. Hsiao and Tsai (2018) xuddi shu metodni 37 ta ko'rsatkich uchun takrorlaganlar. Lusardi va Mitchell (2007a) 13 tadan 5 tasi asosiy bo'lgan ko'rsatkichlar asosida shu usulni takrorlaganlar. Bunda asosiy savollar HRS (2004) savollaridan iborat bo'lsa, mukammallashgan savollar investitsiyalar va risk-menejmentga aloqador savollarni o'z ichiga olgan.

Lusardi va Mithcell (2007) ning moliyaviy savodxonlikni aniqlash uchun tuzgan savolnomasidagi 5 ta asosiy savoldan biri:

Tasavvur qiling, siz jamg'arma hisob raqamingizda 100\$ mablag'ingiz mavjud va bozor foiz stavkasi yiliga 2% ni tashkil etadi. Agar siz shu pulingizni jamg'arish uchun qoldirsangiz, 5 yildan so'ng siz qancha mablag'ga ega bo'lishingiz mumkin?

102\$ dan ko'proq (1 ball)

Aniq 102\$ (0 ball)

102\$ dan kamroq (0 ball)

Respondentlar shu kabi savollarga bergan to'g'ri javoblaridan yuqorida keltirilgan usullar yordamida moliyaviy savodxonlik indeksi shakllantiriladi. Moliya bozori va undagi instrumentlar murakkablashgani sari, hamda mamlakat hududida mavjud instrumentlardan kelib chiqib savollar tanlanadi yoki shakllanitiriladi. Masalan, moliyaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanishi OECD (2024) ni raqamli moliyaviy savodxonlik indeksini hisoblash metodini ishlab chiqishga undadi. Unga ko'ra, endi raqamli moliya hamda moliyaviy texnologiyalar mavjudligi hamda ishlash mexanizmidan xabardorlik darajasi ham baholanadi va raqamli moliyaviy savodxonlik indeksi shakllanadi.

Shuningdek, islom moliyasi rivojlanishi islomiy moliyaviy savodxonlik (shar'iy moliyaviy savodxonlik) indeksini hisoblashni ham zaruratga aylantirganiga ancha

bo'ldi. Bu boradagi olimlar ushbu indeksning mukammal shakli hali shakllanib ulgurmaganligini ta'kidlashmoqda va turlicha dalillar bilan fikrlarini tushuntirmoqdalar. Islomiy moliyaviy savodxonlik indeksining o'ziga xos tomoni shundaki, unga tegishli tushunchalarni, asosiy tushunchalar ustiga qo'shimcha ravishda kiritish yetarli bo'lmaydi. Sababi shundaki, islom moliyasi an'anaviy moliyaviy savodxonlik bazaviy tushunchalarini inkor etadi. Masalan, yuqoridagi Lusardi va Mitchelling asosiy savollaridan biri % stavkasi haqida edi, biz islomiy moliyaviy savodxonlik indeksini hisoblashda unga tayana olmaymiz. Shu sababli, bugun islom moliyasi olimlari oldida turgan vazifa, barcha musulmon va musulmon bo'lmagan mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan so'rovnoma ishlab chiqishdir.

Hidajat va Hamdani (2017) o'zlari taqdim etgan muqobilda islom moliyasida asosiy bo'lgan quyidagi hukmlarni savolnomaga kiritishni zarur deb ta'kidlaganlar:

1-jadval

Islomiy moliyaviy savodxonlik indeksi shakllanitirish uchun so'rovnoma savollari tarkibi

№	So'rovnoma tarkibi
1	Ribo (iste'molni tezlashtirganlik uchun to'lov to'lash, kechiktirganlik uchun to'lov olish) ta'qiqlangan amaliyot
2	Shaxsiy kredit munosabatlaridan olingan foyda bu ribo va u ta'qiqlangan
3	Turli hajmdagi yoki sifatdag mahsulotlarni ayirboshlash jarayoni bu ribo
4	Agar, salam shartnomasida, sotuvchi yuqoriroq sifatdag mahsulotni yetkazib bersa, u qo'shimcha to'lov so'rashi mumkin emas
5	Agar, salam shartnomasida, sotuvchi pastroq sifatdag mahsulotni yetkazib bersa va haridor uni qabul qilib olsa, sotuvchi chegirma so'ramasligi kerak
6	Agar, salam shartnomasida, sotuvchi mahsulotni kelishilgan vaqtdan oldinroq yetkazib bersa, u qo'shimcha to'lov so'rashi mumkin emas
7	Agar, salam shartnomasida, mahsulotlar qisman yoki to'liq holda vaqtida yetkazib berilmasa, yoki sifati va'da berilganidek bo'lmasa va haridor uni qabul qilmasa, haridor oldida 2 yo'l bor: yoki pulini qaytarishni so'rashi yoki keyingi partiyani kutishi mumkin
8	Murabaha shartnomasida sotuvchi haridorga mahsulotning sotib olish narxi hamda u olmoqchi bo'lgan foydasi haqidagi axborotni to'g'risini aytishi kerak
9	Murabaha shartnomasida, agar haridor bankrot deb e'lon qilinsa yoki to'lovga layoqatini yo'qotsa va u qarzini to'lay olmasa, unda sotuvchi haridor moliyaviy holatini yaxshilab olgunicha kutishi yoki boshqa bitim tuzishi mumkin

10	Istisna shartnomasida agar mahsulot defekti bo'lsa yoki kelishuvdagi mahsulotga mos kelmasa, unda kelishivni davom ettirish yoki uni bekor qilishi haridorning huquqidir.
11	Istisna shartnomasiga asosan, to'lov boshidan 100% to'lab berilmaydi, lekin dastlabki qo'yilma qo'yilishi mumkin
12	Ijaraga beruvchi va oluvchi o'rtasida tuzilgan Ijara shartnomasida egalik huquqi ko'chirilmaydi, faqat foydalanish huquqi ko'chiriladi (beriladi)
13	Ijara shartnomasida tovar va xizmatlarni qabul qiluvchi beneficiarning majburiyatlari bu ijara tovar va xizmatlarini taqdim etish, tovarlarni saqlash harajatlarini qoplash, tovarning bo'lajak defektlari uchun garov taqdim etishdir
14	Ijara shartnomasida ijaraga oluvchining majburiyatlari bu ijara haqini to'lash, tovarning butunligi uchun javob berish, saqlashning kichkina va nomoddiy harajatlarini qoplash
15	Ijara shartnomasida, ijaraga olingan tovar buzilgan bo'lsa, lekin u tovarning asosiy faoliyatiga ta'sir qilmasa, va bu benefisiarning aybi bilan bo'lmasa, ijaraga beruvchi bu uchun javibgar emas
16	Mudarabah shartnomasida kapital egasiga doim foydaga erishishiga kafolat berilmaydi
17	Mudarabah shartnomasida kapital egasi barcha yo'qotishlarni o'z bo'yniga oladi (hamkorining bee'tiborligi yoki moral hazard sababli bo'lmasa)
18	Mudarabah shartnomasida mudarib yuritgan biznes daromadga chiqsa, hamkor va kapital egasi daromadni oldindan kelishilgan nisbatda bo'lib oladilar
19	Mudarabah shartnomasi daromadi bu kapitaldan oshiqcha yig'ilgan mablag'
20	Musharakah shartnomasida kiritilayotgan kapital naqd pul, oltin, kumush yoki boshqa bir xil qiymatdagi qimmatliklar bo'lishi kerak. Agar u tovar ko'rinishida kiritilsa, unda u pul birligida baholanishi va kapital bu bahoni qabul qilishi kerak
21	Musharakah shartnomasida barcha daromadlar proporsional taqsimlanishi kerak
22	Musharakah shartnomasida, daromad me'yordan oshgach, hamkorlar daromadning oshgan qismidan % olishlari mumkin, biroq agar zarar ko'rilsa, kiritilgan kapitalga proposrional ravishda javob berilishi kerak

Ushbu hukmlar to'g'ri muqobilda berilgan bo'lib, ularni savolnomaga alohida-alohida, yoki bir nechtasini birgalikda kiritib, respondentlardan "to'g'ri" (1 ball),

“noto‘g‘ri” (0 ball), “bilmayman” (o ball) muqobillaridan birini tanlash taklif etiladi. Natijalar asosida tortilgan en kichik kvadratlar usuli (Weighted Least Square method) yordamida tasdiqlovchi omilli tahlil (CFA Confirmatory Factor Analysis) amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar


Dinc va b. (2021) islomiy moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantirishga harakat qilib, o‘z ishlarida barcha mamlakatlar yurisdiksiyalari uchun mos keluvchi islomiy moliyaviy savodxonlik indeksini shakllantirishga harakat qilganlar. Izlanuvchilar dastlab 698 punktdan iborat surovnomani 81 ta respondent o‘rtasida o‘tkazgan. Ularning natijasiga asoslanib, qisqartirilgan, 40 punktdan iborat savolnoma (e‘tiqodiy mavzudagi savollar bilan birga) tuzilgan va Turkiyaning turli shaharlarida 287 respondent o‘rtasida so‘rov o‘tkazilgan. Tushuntiruvchi omilli tahlil bilan birga, ushbu shkala 20 elementli 4 omilli jamlamadan iborat. Mualliflar ta‘kidlashlaricha, ushbu mezon islom moliyasi ishlayotgan va ishlaymayotgan barcha mamlakatlar uchun mos keladi.

Khasanah va b. (2022) o‘z ishlarida islomiy moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlashdagi bo‘shliqni to‘ldirishga va aholisi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadigan Indoneziya uchun IMS darajasini aniqlashga harakat qilganlar. Ular IMS ni hisoblashda insonlar jinsi, ta‘lim va daromad darajasi kabi demografik omillardan tashqari etnografik omillarni ham hisobga olish zarurligini ta‘kidlaganlar. Natijaga ko‘ra, ta‘lim darajasi MS darajasiga faqat bir mamlakat doirasida ijobiy ta‘siq qilishi mumkin, bir necha mamlakatlar birgalikda tahlil qilinganda esa natijalar turlicha bo‘ladi. Bunda asosiy ta‘sir qiluvchi omil moliyaviy ijtimoiylashuv agentlari – banklar yoki islomiy moliya institutlari bo‘lishi mumkin.

Harun va b. (2024) esa OIC mamlakatlari talabalari misolida islomiy moliyaviy savodxonlik ko‘rsatkichi determinantlari keltirilgan ilmiy ishlarni obzorini amalga oshirgan. Ma‘lumotlar PRISMA protokolidan metodik tekshiruv asosida tanlab olingan va jami 132 tadan 45 ta maqola tanlangan. Natijaga ko‘ra, talabalarning bilimi va islom moliyasini tushunishi turli xil omillar ta‘sirida sodir bo‘ladi: ijtimoiy-demografik kelib chiqish, ta‘lim darajasi, e‘tiqod, iqtisodiy ta‘minot. Shuningdek, ushbu mavzu kengroq tadqiq etilishi lozimligi ta‘kidlangan.

Rehman va Mia (2024) moliyaviy savodxonlikka ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganib, skopus bazasidagi 1981-2024 yillarda nashr etilgan adabiyotlarning tizimli obzorini amalga oshirgan. U moliyaviy savodxonlik ko‘rsatkichi 61 ta determinantlarini 7 guruxga ajratgan, xususan: demografik, ijtimoiy-iqtisodiy,

psixologik, moliyaviy, ijtimoiy-axloqiy va islomiy mezonlar. Bunda olimlar boshqa omillarga nisbatan demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ko'proq e'tibor qaratganlar. Moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi texnologik moliyaviy savodxonlikni, islom moliyasining keng yoyilayotganligi islomiy moliyaviy savodxonlik dolzarbligini oshirayotganligi sababli, ushbu omillar ham ta'kidlab o'tilgan.



1-rasm. Moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir qiluvchi va o'zaro munosabatdagi omillar

Ahmad va b. (2020), Kevser and Doğan (2021) va Rahim et al. (2016) moliyaviy savodxonlikni islomiy nuqtai nazardan tahlil qilishgan. IMS bu islom prinsiplariga mos keladigan asosli moliyaviy qarorlarni qabul qila olish qobiliyati, deb ta'riflash mumkin. Islom moliyasining asosiy tamoyili – ribo ni ta'qiqlashi - ya'ni foiz amaliyotlarini inkor etishi uning o'rganilishi shart ekanligini ko'rsatadi. Bu shart faqat musulmonlar uchun

emas, musulmon bo'lmagan insonlar uchun ham muhim bo'lib, qaysidir iqtisodiy model tomonidan ommaviy ravishda foydalanilayotgan instrumentning ta'qiqlanishi mantiqan e'tiborni tortishi va o'rganilishi zarur hisoblanadi. IMS ning asosiy jihati shundaki, unda moliyaviy savodxonlik determinatlariga qo'shimcha ravishda insonlar e'tiqodi va unga bo'lgan sub'ektiv munosabatlari asosiy ta'sir qiluvchi omillar sifatida olinishidadir. Al-Tamimi (2009) ning BAA dagi tadqiqoti natijasiga ko'ra, e'tiqodlilik darajasi hamda moliyaviy savodxonlik o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjud. Ahmad va b. (2020) omilli tahlilida IMS ning 2 unsurini aniqlagan: sub'ektiv shar'iy komplaens ilmi va sub'ektiv ribo va foydani taqsimlash ilmi. Shar'iy komplaens ilmi insonlarni iqtisodiy munosabatlarni islomiy tamoyillar asosida boshlash (Muamalah) ga yo'naltiradi, sub'ektiv ribo (foiz) va foydani taqsimlash ilmi esa insonlar riboni va foydani taqsimlash shartnomalarini qanchalik tushunishlari darajasini bildiradi. Boshqa bir qator ishlarda esa IMS ning foiz (ribo) dan holi tizimlar va foydani taqsimlashga asoslangan bitimlar ("Musharakah" va "Mudharabah" shartnomalari) kabi komponentlari o'rganilgan.

Rehman va Mia (2024) moliyaviy savodxonlik determinantlari bo'yicha adabiyotlar obzorini amalga oshirganlar. Ularning ishlarida moliyaviy savodxonlikning moliyaviy bilim, munosabat, arifmetika bilan aloqalari o'rganilgan, shuningdek mualliflar moliyaviy xulq va moliyaviy xabardorlik, moliyaviy noziklik va risk-tolerantlik haqida kam tadqiqotlar qilinganligini ta'kidlaganlar. Psixologik omillardan kognitiv imkoniyatlar, self-samaradorlik, umidsizlik, va moliyaviy tashvishlanish hissi o'rganilgan, ular tushunish, tahlil qilish va holatni baholashga ta'siri bilan moliyaviy qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilishi ta'kidlangan. Moliyaviy qaror qabul qilishda ham intuitiv, ham kognitiv omillar muhimligi tasdiqlangan (Evans, 2008, Glaser va Walther, 2014). Ularning biri tez, ong ostida kechadigan, intuitiv tizimlar jarayoni bo'lsa, ikkinchisi sekin, ongli, nazoratli tahlil tizimidir (Stanovich va West, 2000). Moliyaviy savodxonlik uchun shu ikki tizimlardan bir-biriga o'ta olish qobiliyati muhimdir. Bu ayniqsa, bugun murakkab moliyaviy operatsiyalar zamonida muhimdir (Bamforth va b., 2018). Bunda "kognitiv" atamasi anglash, hamdardlik, sahiylik, chayqovchilik va fikrlash, shuningdek, axborotni boshqarish, muammolarni hal qilish, bashorat qilish va ishonch kabi bilim va aqliy faoliyatning barcha turlarini qamrab oladi. Moliyaviy xulq-atvor haqidagi tadqiqotlar kuchli kognitiv imkoniyatlar barqaror moliyaviy qaror qabul qilish jarayonining asosiy tashkil etuvchisi deb ta'kidlashadi. Ushbu ishda asosan skopusdagi top nashriyotlar tadqiqot obekti sifatida olingan. Ingliz tilidan boshqa

tillardagi maqolalar ham hisobga olinmagan. E'tiqodning moliyaviy qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri kam o'rganilganligi ham ta'kidlangan.

Xulosa va takliflar

Ushbu tizimli tahlil mavjud adabiyotlarda keltirilgan IMS indeksi va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish uchun amalga oshirildi. Ta'sir qiluvchi omillar orasida kuchliroqlari sifatida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni keltirishimiz mumkin, chunki ular individual moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilar ekan. Moliyaviy omillarning moliyaviy savodxonlikka ta'sirini o'rganadigan izlanishlar kamroq kuzatilgan. Moliyaviy tushunchalardan xabardorlik asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonining asosi va bu tushunchalarga ega bo'lish bilan insonlar mantiqiy qarorlar qabul qilishga erisha olishlari mumkin. Moliyaviy xulq va xabardorlik, moliyaviy noziklik, va risk-tolerantlik kabi omillarning IMS ga ta'sirini o'rganadigan tadqiqotlar juda oz va kengaytirilishi kerakligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, IMS ni oshirishda psixologik omillarni ham hisobga olish muhimdir. Kognitiv imkoniyatlar, self-samaradorlik, umidsizlik va moliyaviy tashvishlanish hissi moliyaviy qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi. Bu kabi psixologik omillar qatoriga muammolarni hal etishga ochiqlik, pulga bo'lgan munosabat, moliyaviy turg'unlik kabi omillarni qo'shib o'rganish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. IMS ob'ektiv ilmini ko'rsatib beradigan asosiy tushunchalardan iborat savollar tuzilishi ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Atkinson, A., & Messy, F. A. (2011). Assessing financial literacy in 12 countries: an OECD/INFE international pilot exercise. *Journal of Pension Economics & Finance*, 10(4), 657-665.

Dinc, Y., Çetin, M., Bulut, M., & Jahangir, R. (2021). Islamic financial literacy scale: an amendment in the sphere of contemporary financial literacy. *ISRA International Journal of Islamic Finance*, 13(2), 251-263.

Huston, S. J. (2010). Measuring financial literacy. *Journal of consumer affairs*, 44(2), 296-316.

Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *American Economic Journal: Journal of Economic Literature*, 52(1), 5-44.

Klapper, L., Lusardi, A., & Van Oudheusden, P. (2015). Financial literacy around the world. World Bank. Washington DC: World Bank, 2, 218-237.

Xu, L., & Zia, B. (2012). Financial literacy around the world: an overview of the evidence with practical suggestions for the way forward. World Bank Policy Research Working Paper, (6107).

Lusardi, A. (2008). Financial literacy: an essential tool for informed consumer choice? (No. w14084). National Bureau of Economic Research.

Jonsson, S., Söderberg, I. L., & Wilhelmsson, M. (2017). An investigation of the impact of financial literacy, risk attitude, and saving motives on the attenuation of mutual fund investors' disposition bias. *Managerial Finance*, 43(3), 282-298.

Yoong, J. (2011). Financial illiteracy and stock market participation: Evidence from the RAND American Life Panel. *Financial literacy: Implications for retirement security and the financial marketplace*, 76, 39.

Grohmann, A. C. (2015). Financial literacy and peer effects: causes and consequences.

Shen, C. H., Lin, S. J., Tang, D. P., & Hsiao, Y. J. (2016). The relationship between financial disputes and financial literacy. *Pacific-Basin finance journal*, 36, 46-65.

Van Rooij, M., Lusardi, A., & Alessie, R. (2011). Financial literacy and stock market participation. *Journal of Financial economics*, 101(2), 449-472.

Hsiao, Y. J., & Tsai, W. C. (2018). Financial literacy and participation in the derivatives markets. *Journal of Banking & finance*, 88, 15-29.

Choi, J. J., Laibson, D., Madrian, B. C., & Metrick, A. (2004). For better or for worse: Default effects and 401 (k) savings behavior. In *Perspectives on the Economics of Aging* (pp. 81-126). University of Chicago Press.

Lusardi, A. (2009). The importance of financial literacy. *NBER Reporter Online*, (2), 13-16.

Mitchell, O. S., & Lusardi, A. (2015). Financial literacy and economic outcomes: Evidence and policy implications. *The journal of retirement*, 3(1), 107.

Yoshino, N., Morgan, P. J., & Trinh, L. Q. (2017). Financial literacy in Japan: Determinants and impacts (No. 796). ADBI Working Paper.

Fraczek, B. and Klimontowicz, M. (2015), "Financial literacy and its influence on young customers' decision factors", *Journal of Innovation Management*, Vol. 3 No. 1, pp. 62-84.

Khasanah, M., Aminullah, R., & Setianingsih, D. (2022). Determinants of Islamic Financial Literacy Index: Comparison Based on Ethnographic Studies in Yogyakarta, Indonesia. *Afkaruna: Indonesian Interdisciplinary Journal of Islamic Studies*, 18(1), 185-206.

Harun, H. F., Sarman, M. A., & Kamaruddin, S. H. (2024). Determinants of Islamic Financial Literacy in OIC Countries: A Comprehensive Systematic Review and Analysis. *Journal of Economic Cooperation & Development*, 45(1).

Er, B., & Mutlu, M. (2017). Financial inclusion and Islamic finance: A survey of Islamic financial literacy index. *International Journal of Islamic Economics and Finance Studies*, 3(2).

Rehman, K., Mia, M.A. Determinants of financial literacy: a systematic review and future research directions. *Futur Bus J* 10, 75 (2024). <https://doi.org/10.1186/s43093-024-00365-x>

Evans JSB (2008) AR further. *Annu Rev Psychol* 59:255–278 26.

Glaser M, Walther T (2014) Run, walk, or buy? Financial literacy, dual-process theory, and investment behavior. *Financial literacy, dual-process theory, and investment behavior* 27.

Stanovich KE, West RF (2000) Individual differences in reasoning: Implications for the rationality debate? *Behav Brain Sci* 23(5):645–665 28.

Bamforth J, Jebarajakirthy C, Geursen G (2018) Understanding undergraduates' money management behaviour: a study beyond financial literacy. *Int J Bank Market* 36(7):1285–1310. <https://doi.org/10.1108/IJBM-05-2017-0104>

Ahmad G, Widyastuti U, Susanti S, Mukhibad H (2020) Determinants of the Islamic financial literacy. *Accounting* 6(6):961–966

Kevser M, Doğan M (2021) Islamic financial literacy and its determinants: a field study on Turkey. *J Transit Stud Rev* 28(1):91–120

Rahim SHA, Rashid RA, Hamed AB (2016) Islamic financial literacy and its determinants among university students: an exploratory factor analysis. *Int J Econ Financ Issues* 6(7S):32–35

Al-Tamimi HAH (2009) Financial literacy and investment decisions of UAE investors. *J Risk Finance* 10(5):500–516

Abdullah R, Razak A, Ali U (2015) Exploratory research into Islamic financial literacy in Brunei Darussalam. *Faculty Bus Manag Sci*, pp 59–83

Shukor SA, Jamal A (2013) Developing scales for measuring religiosity in the context of consumer research. *Middle East J Sci Res*, 69–74. <https://doi.org/10.5829/idosi.mejsr.2013.13.1884>